


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib trln. so'm



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 9 858,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi

1 124,9 mlrd. so'mni (**4,6 %** ga kamaydi). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8 733,7** mlrd. so'mni (**5,1 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **596,3** mlrd. so'mni (**31,5 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda %



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Farg'ona viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 858,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,0 %** ga kamaygan.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **88,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **11,4 %** to'g'ri keldi.

Farg'ona sh.

2 368,0

ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri **24,0 %** ulush bilan **2 368,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Quva

515,6

Qo'shtepa

477,4

Bog'dod

399,3

Beshariq

338,6

O'zbekiston

299,6

Toshloq

255,9

Yozyovon

242,6

Dang'ara

240,1




So'x

129,0

ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quiyi ulushni So'x **1,3 %** ulush bilan **129,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



2019-yil
yanvar-avgust

2020-yil
Yanvar-avgust

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, 8 733,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 5,1 % ga pasaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 88,6 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qo'shtepa (98,9 %), So'x (98,8 %), Farg'ona (98,6 %) tumanlarida yuqori bo'lган.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-avgust oylariga viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'satkichlar Qo'qon shahrida (97,0 %) va Oltiariq (96,6 %) tumanida qayd etildi.


Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonala r, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	9 858,7	95,0	1 124,9	95,4	8 733,7	94,9
Shaharlar						
Farg'ona	2368,0	96,0	625,7	95,5	1742,3	96,1
Qo'qon	1541,3	97,0	219,1	89,5	1322,2	98,3
Quvasoy	223,4	96,3	47,9	4,8 m	175,5	79,1
Marg'ilon	1015,7	95,8	38,3	48,2	977,4	99,6
Tumanlar						
Oltiariq	359,8	96,6	17,8	149,6	342,1	94,8
Qo'shtepa	477,4	95,6	5,2	6,4 m	472,2	94,7
Bag'dod	399,3	93,1	22,7	36,8	376,6	102,5
Buvayda	396,2	94,5	13,3	212,0	382,9	92,7
Beshariq	338,6	91,8	9,3	174,4	329,2	90,5
Quva	515,6	95,6	29,4	84,0	486,3	96,5
Uchko'prik	288,9	83,9	24,8	201,5	264,2	79,5
Rishton	285,3	95,4	14,2	107,3	271,1	94,8
So'x	129,0	89,9	1,5	149,6	127,5	89,5
Toshloq	255,9	94,7	17,7	109,8	238,2	93,8
O'zbekiston	299,6	96,4	11,5	162,1	288,1	94,9
Farg'ona	348,3	94,1	4,8	211,7	343,5	93,3
Dang'ara	240,1	96,3	9,4	152,0	230,6	94,8
Furqat	133,7	83,4	4,9	200,4	128,8	81,6
Yozyovon	242,6	95,4	7,5	93,8	235,1	95,4

CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI TARKIBI


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 4,6 % ga kamaydi va **1 124,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **11,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **8 733,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,1 %** ga pasaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **88,6 %** ni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyeklarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa (**98,9 %**), So'x (**98,8 %**) va Farg'ona (**98,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **11,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Farg'ona (**26,4 %**), Quvasoy (**21,4%**) va Qo'qon (**14,2 %**) shahrida kuzatildi.



FARG'ONA VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 617,0** ming so'm (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **6,8 %** ga kamaydi) va Uchko'pri (**82,2%**), So'x (**88,3 %**) tumanlari va boshqa barcha shahar va tumanlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Farg'ona sh. (**8 165,6** ming so'm), Qo'qon (**6 075,3** ming so'm) va Marg'ilon (**4 303,8** ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Farg'ona viloyat	2 617,0	93,2
Shaharlар		
Farg'ona	8 165,6	94,3
Qo'qon	6 075,3	95,4
Quvasoy	2 386,5	94,7
Marg'ilon	4 303,8	94,2
Tumanlar		
Oltiariq	1 702,1	94,7
Qo'shtepa	2 511,4	93,7
Bog'dod	1 854,5	91,1
Buvayda	1 739,9	92,6
Beshariq	1 485,7	90,1
Quva	1 998,6	93,9
Uchko'pri	1 265,1	82,2
Rishton	1 414,3	93,7
So'x	1 658,4	88,3
Toshloq	1 266,7	92,8
O'zbekiston	1 255,5	94,6
Farg'ona	1 634,3	92,2
Dang'ara	1 382,8	94,3
Furqat	1 135,9	82,1
Yozyovon	2 195,8	93,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda



Farg'ona viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **596,3** mld. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **31,5 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **302,4** mld. so'mni (o'zgarish surʼati **76,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **293,9** mld. so'mni (o'zgarish surʼati **61,6 %**) tashkil etdi.


Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo **596,3** mld. so'm, 100,0 %

Dehqon bozorlari **302,4** mld. so'm,
50,7%

Chorva bozorlari **239,9** mld. so'm,
49,3 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yilning yanvar-avgust oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **302,4** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **293,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shмаган holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyat	596,3	68,5	302,4	76,8	293,9	61,6
shaharlar						
Farg'ona	78,4	73,0	61,3	104,9	17,5	48,0
Qo'qon	85,7	77,5	36,7	126,5	48,5	72,4
Quvasoy	14,9	70,1	5,5	44,9	10,0	53,7
Marg'ilon	90,9	55,1	46,5	127,7	44,5	86,3
tumanlar						
Oltiariq	14,6	62,3	10,9	78,1	3,9	34,8
Qo'shstepta	36,6	76,4	21,9	77,8	14,5	56,4
Bag'dod	58,5	75,2	14,9	96,3	43,2	102,4
Buvayda	35,3	50,5	28,0	73,3	7,0	36,5
Beshariq	51,1	85,2	17,1	60,1	33,7	86,5
Quva	33,5	73,5	17,4	62,8	16,0	88,8
Uchko'prik	4,9	43,1	1,4	17,8	3,5	24,3
Rishton	19,5	65,0	8,4	49,2	11,0	56,1
So'x	4,3	70,4	1,7	31,3	2,6	32,3
Toshloq	8,4	72,0	4,7	43,5	3,7	45,3
O'zbekiston	11,7	63,1	4,3	36,5	7,3	43,2
Farg'ona	29,3	78,4	12,0	53,9	17,4	42,7
Dang'ara	5,3	68,6	3,0	41,7	2,3	31,8
Furqat	0,5	62,2	0,5	3,7	-	-
Yozyovon	12,9	67,5	6,5	58,9	7,2	46,5



4,8
mlrd. so'm

Tuzlamalar



101,9
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



7,9
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

55,0
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



11,9
mlrd. so'm

3,8
mlrd. so'm



Sut va sut
mahsulotlari

Tuxum



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

92,9
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

5,1
mlrd. so'm



3,2
mlrd. so'm

Ziravorlar



12,2
mlrd. so'm

Tovuq go'shti



3,7
mlrd. so'm

Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **302,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**101,9** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **293,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **220,0** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **70,7** mlrd. so'mni, otlar **2,0** mlrd. so'mni, parrandalar **1,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,6 % ni tashkil etib, 159,1 mlrd. so'mga yetdi va 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 14,4 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 64,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining
o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyat	159,1	85,6	4,9	211,6	154,2	84,0
shaharlar						
Farg'ona	63,6	93,2	4,8	2,3 m	58,8	88,8
Qo'qon	14,6	93,7	0,01	49,9	14,6	93,9
Quvasoy	3,7	87,4	-	-	3,7	87,4
Marg'ilon	14,6	92,7	-	-	14,6	92,7
tumanlar						
Oltiariq	3,8	81,1	-	-	3,8	81,1
Qo'shtepa	3,3	77,9	-	-	3,3	77,9
Bag'dod	4,4	82,7	-	-	4,4	82,7
Buvayda	5,4	81,1	-	-	5,4	81,2
Beshariq	3,6	69,2	-	-	3,6	69,2
Quva	5,2	79,5	-	-	5,2	79,5
Uchko'prik	5,5	61,5	0,1	30,2	5,4	62,2
Rishton	4,7	70,8	-	-	4,7	70,8
So'x	2,7	68,8	-	-	2,7	68,8
Toshloq	3,8	73,9	-	-	3,8	73,9
O'zbekiston	4,8	84,5	-	-	4,8	84,5
Farg'ona	6,2	82,2	-	-	6,2	82,2
Dang'ara	4,7	83,7	-	-	4,7	83,7
Furqat	1,9	69,6	-	-	1,9	69,6
Yozyovon	2,6	80,4	-	-	2,6	80,5

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Farg'ona viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 949,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **17,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **511,1** mlrd. so'mni (**36,1 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **3 438,1** mlrd. so'mni (**14,0 %** ga kamayish), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi **2 514,9** mlrd. so'mni (**11,9 %** ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **923,2** mlrd. so'mni (**19,3 %** ga kamayish) ni tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo	3 949,2 mlrd. so'm, 100 %
Yirik korxonalar	511,1 mlrd. so'm 12,9%
Mikrofirmalar	2 514,9 mlrd. so'm, 63,7 %
Kichik korxonalar	923,2 mlrd. so'm, 23,4 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

FARG'ONA VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020- yil yanvar-avgust

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Oltiariq tumanida (**10,8 m**), Qo'qon (102,4 %) shahrida kuzatildi.




Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Marg'ilon (94,7 %) va Qo'qon (92,1 %) shahrida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyat	3 949,2	82,3	511,1	63,9	3 438,1	86,0
shaharlar						
Farg'ona	1 143,5	77,0	430,8	60,1	712,7	92,6
Qo'qon	836,2	92,1	74,6	102,4	761,6	91,2
Quvasoy	120,6	87,8	-	-	120,6	87,8
Marg'ilon	799,4	94,7	-	-	799,4	94,7
tumanlar						
Oltiariq	201,3	84,0	1,0	1 0,8 m	200,3	83,6
Qo'shtepa	10,8	78,7	-	-	10,8	78,7
Bag'dod	12,8	76,0	3,5	62,5	9,3	82,7
Buvayda	124,3	63,7	-	-	124,3	63,7
Beshariq	58,6	78,9	-	-	58,6	78,9
Quva	57,9	79,9	-	-	57,9	79,9
Uchko'prik	134,2	69,8	0,2	26,7	134,0	70,0
Rishton	13,0	67,8	0,2	52,5	12,8	68,1
So'x	1,3	47,3	0,1	61,5	1,3	46,7
Toshloq	97,3	67,4	0,3	15,9	97,0	68,1
O'zbekiston	72,2	78,5	0,1	74,4	72,1	78,5
Farg'ona	48,7	68,7	-	-	48,7	68,9
Dang'ara	160,7	81,2	0,2	43,0	160,5	81,3
Furqat	7,6	61,7	-	-	7,6	61,7
Yozyovon	48,7	63,3	0,1	41,9	48,6	63,4

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **3 949,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **17,7 %** ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **87,1 %** ni tashkil etdi.Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Marg'ilon (**100,0 %**), Quvasoy (**100,0 %**),shahrlarda va Qo'shtepa (**100,0 %**), Buvayda (**100,0 %**),Quva (**100 %**) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Farg'ona (**62,3 %**) shahriga to'g'ri keldi.